

**QUR'ON ILMIGA DOIR MANBALAR TAHLILI**

Abdunabiyeva Aziza

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi talabasi

Telefon raqami: 93 565 12 28

Ilmiy rahbar: D.M.Muratov

Tarix fanlari nomzodi,

*Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO kafedrası
dotsenti*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Qur'onshunoslikka doir klassik manbalar turli davrlarda yozilishiga ko'ra tadrijiy tartiblangan, shuningdek, ushbu asarlar tarkibi va ahamiyati yoritib berilgan.*

Tayanch so'zlar: *tadvin, qiroat, tafsir, to'plam, maqbul, shoz, mutavotir.*

Dastlab barcha ilmlar tarqoq holda bo'lib, asosan og'zaki shaklda mavjud, yozma shakldagilari esa bir tizimga solinmagan edi. Bu holat tobeinlar davrida ham bir muddat davom etdi. Hijriy ikkinchi, uchinchi (mil. VIII-IX) asrlarga kelib islom tarixida hadislarni "tadvin" qilish, ya'ni xatga tushirish asri boshlandi. Bu esa Qur'onni yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatlarini ochib berdi. Avvalida hadislar jamlanib, ularning to'plamlari yuzaga keldi. Mazkur to'plamlarda tafsirga bag'ishlangan ilk boblar paydo bo'ldi. Jumladan yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk muhaddislar Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Dorimiylarning hadis to'plamlarida "at-Tafsir", "Fazoil al-Qur'on" ("Qur'on fazilatları"), "Kitob al-qiroat" ("Qiroatlar kitobi") va "Kitob tafsir al-Qur'on" ("Qur'on tafsiri kitobi") nomli alohida kitoblar (bob) kiritilgan bo'lib, ularda ba'zi bir suralarning sharhlari va fazilatları Muhammad (a.s.) dan rivoyat qilingan hadislar asosida keltirilgan. Shuningdek, hadislardan tashqari, sahoba va tobeinlarning Qur'onga bergan sharhlari ham kiritilgan. Ba'zi suralarning sharhiga ko'proq, ba'zisiga kamroq hadislar o'rin olgan. Hadislar orasida oyatning nozil bo'lish sabablari haqidagi



rivoyatlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Bundan tashqari, Qur'on ilmlari, xususan, tafsir ilmi rivojiga katta hissa qo'shgan yetuk muhaddislardan Yazid ibn Xorun Sulamiy, Shu'ba ibn Hajjoj, Vake ibn Jarroh, Sufyon ibn Uyayna nomlarini ham qayd etish mumkin.

Ushbu davrda tafsir sohasi ham hadis ilmidan ajralib chiqib, mustaqil sohaga aylana boshladi. Mazkur davrda tasnif etilgan asarlardan Abu Ubayda Muammar Musannoning (vaf. 824 y.) "Majoz al-Qur'on", Abu Ubayd Qosim ibn Salomning (vaf. 839 y.) "an-Nosix val-mansux" va "Qiroat", Ali ibn Madiniyning "Asbob annuzul", Xoris ibn Asad Muxosibiyning (vaf. 857 y.) "Fahm al-Qur'on", Ibn Qutaybaning (vaf. 889 y.) "Mushkil al-Qur'on" asarlari eng mashhur manbalardan hisoblanadi. Milodiy X asrga kelib, Muhammad ibn Xalaf ibn Marzabon o'zining "al-Hoviy fi ulum al-Qur'on" asarida ilk bor "Qur'on ilmlari" atamasini ishlatdi. Chunki bu davrga qadar ushbu atama istifodaga kirmagan edi. Shundan so'ng, Abu Bakr Muhammad ibn Qosim Anboriy ham "Ulum al-Qur'on", Muhammad ibn Ali Adfaviy esa "al-Istig'no fi ulum al-Qur'on" nomli asarlarni bitdilar. Shu asnoda, Qur'on ilmlarining turli sohalariga bag'ishlangan asarlar soni tobora ko'payib bordi. Ular jumlasiga Abu Bakr Boqiloniyning "E'joz al-Qur'on", Ali ibn Ibrohim ibn Said Havafiyning "E'rob al-Qur'on", Movardiyning "Amsol al-Qur'on", Izz ibn Abdussalomning "Majoz al-Qur'on", Alamuddin Saxoviyning "Ilm al-qiroat" kabi asarlarini kiritish mumkin. Ushbu asrda diyorimizdan bir qator mufasssirlar yetishib chiqib, Qur'oni Karim tafsiriga oid o'zlarining qimmatli asarlarini yozib qoldirdilar. Jumladan, Abu Mansur Moturidiyning (870-944) "Kitob ta'vilot ahl as-sunna" nomli tafsiri, Abu Lays Samarqandiyning (911-1003) "Bahr al-ulum", Mahmud Zamaxshariyning (1075-1144) "Tafsir al-kashshof" kabi asarlarini zikr etish mumkin.

Qayd etish joizki, yuqorida nomlari zikr etilgan asarlar Qur'on ilmlarining barcha mavzularini qamrab olmay, balki uning muayyan sohasiga bag'ishlangan edi. Aksar tadqiqotchilar fikricha, Qur'on ilmlari to'laligicha aks etgan birinchi asar misrlik Ali ibn Ibrohim ibn Said Havafiyning (vaf. 1038 y.) "al-Burxon fi ulum al-Qur'on" kitobidir. Mazkur kitob asli 30 jilddan iborat bo'lib, bizgacha uning faqat



15 jildigina yetib kelgan. Hozirda asar qo'lozmasi Misr qo'lyozma fondlarida saqlanadi.

Keyinchalik, milodiy XII asrda Ibn Javziy (597-hijriy sanada vafot etgan) "Funun al-afnon fi ajoyib ulum al-Qur'on" va "Al-Mujtaba fi ulumin tata'allaqu bil-Qur'on" nomli kitoblarini, XIV asrda Badriddin Zarkashiy o'zining mashhur "al-Burxon fi ulum al-Qur'on", Jaloliddin Balqiniy "Mavoqe al-ulum min mavoqe an-nujum" asarlarini yozdilar. Shuningdek, mazkur davrda ko'hna Nasaf shahrida tug'ilgan Abul Barakot Nasafiy (1232-1310) o'zining islom olamida mashhur bo'lgan "Tafsir an-Nasafiy" nomli tafsirini yozib qoldirdi. XV asrga kelib esa, mashhur olim Jaloliddin Suyutiy o'zining Qur'on ilmlariga bag'ishlangan asarlar gultoji hisoblangan, "al-Itqon fi ulum al-Qur'on" kitobini yozib tugatdi. Bu asrda yurtimizdan yetishib chiqqan naqshbandiya tariqatining yirik namoyandalari Mavlono Ya'qub Charxiy (1363-1447) "Tafsiri Charxiy" tafsirini hamda Mavlono Husayn Voiz Koshifiy (1442-1505) "Tafsiri Husayniy" asarini ta'lif qildi.

IX/XVI asrda Jaloliddin Balqiniy (vaf. 824/1421) "Mavoqi' al-ulum min mavoqi'in-nujum", Muhammad ibn Sulaymon Kofiyojiy (vaf. 879/1474) "Taysir fi qavoid at-tafsir" asarlari bilan Qur'on ilmlariga doir ayrim ilmlarni o'z qarashlari bilan yanada boyitdilar.

Qiroatlar bo'yicha Ibn Mujohidning (vaf. 324/935) qiroatlar tahliliga oid "Sab' fil-qiroat" asarida ilk bora yetti mutavotir qiroat turlarini ajratib, ishonchliligi borasida izlanish olib borildi. U o'z davrida islom olamida iste'molda bo'lgan qiroatlarni tahlil etib, aniqliklar kiritgan. Uning qiroatlarni yettita mutavotirini ajratib, qolganlarini mashhur va shozzlarga bo'lib berishi, qiroat ilmi olimlari uchun asos vazifasini o'tab kelmoqda.

Ali ibn Ibrohim ibi Sa'id Xavfiy "Burhon fi ulumil-Qur'on" asarining nomi ilgari asrda kashf etilgan atamaning maqbul bo'lganini ko'rsatadi. Mazkur asar tafsirga bag'ishlangan bo'lib, 30 jilddan iborat, Misr Arab Respublikasi fondlarida ayrimlari saqlanmoqda. Qur'on ilmlarini har bir suraga bergan tafsiri davomida keltirib borgan. Bu uslub shu davrga xos xususiyat bo'lib, u Qur'on ilmlariga ta'rif berish asosida nazariy jihatdan emas, balki sharhlash davomida amaliy, tatbiqiy



jihatdan qayd etilgani bilan ajralib turadi, ya'ni u Qur'on ilmlarini mavzular ostida jamlab Qur'onning turli o'rinlarida keltirgan holda misollar bilan quvvatlantirib, turlarga ajratmagan. Balki, u tafsir yozishga ixtisoslashgan bo'lib, munosib o'rinlarda Qur'on ilmlarini qayd etgan. Zarkashiy uning mazkur asaridan foydalangan holda qisqacha tarzda Qur'on ilmlarini bayon etgan.

Undan keyin esa, Ibnul Javziy (vaf. 597/1200) tomonidan "Funun al-afnon fi uyun ulum al-Qur'on" hamda "Mujtabo fi ulumil-Qur'on" asarlari yaratilgan. Ushbu asar Hasan Ziyovuddin Atar tomonidan nashrga tayyorlanib, 1987-yilda Bayrutda chop etilgan.

VII/XIII asrda Ali ibn Muhammad Saxoviyning (vaf 643/1245) "Jamol al-Qurro", Abu Shoma Abdurahmon ibn Ismoil ibn Ibrohimning (vaf. 665/1266) "Murshid al vajiz ila ulum tata'allaq bil-Kitobil-aziz", Izz ibn Abdussalomning (vaf. 660/1262) "Majoz al-Qur'on" asarlari ta'lif etildi. Ushbu asarlar ham Qur'on imlari qisman o'rganilgan asarlardir.

VIII/XIV asrda Ibn Qayyim (vaf. 751/1350) "Aqsom al-Qur'on" nomli Qur'ondagi qasamlarga bag'ishlangan asarini yozgan bo'lsa, bu davrda Qur'on ilmlariga yaxlit tarzda e'tibor qaratildi hamda yanada mukammal asarlar yaratilishi boshlandi. Badruddin Zarkashiy (vaf.794/1391) "Burhon fi ulum al-Qur'on" asarida 34 ilmni keltirgan bo'lib, Qur'on ilmlariga oid fanlarni keltirmagan. Mazkur oxirgi asar Qur'on ilmlari yaxlit tarzda, turlarga bo'linib, alohida mavzular ostida o'rganilgan dastlabki asardir. Unda ta'rif va misollar bilan boyitilgan holda nazariy jihatdan yondashilgan. O'z davrigacha yaratilgan asarlardan istifoda etilgan, ulardan qisqartirib olingan fikrlar ham keltirilgan. Shu bilan birga, o'z tahliliy qarashlari asosida fikrlarini bayon etgan. Ushbu asar Muhammad Abul-Fazl tomonidan tadqiq etilib nashrga tayyorlangan.

To'qqizinchi hijriy asrda esa imom Jaloliddin Suyutiy (vaf. 911/1505) "al-Itqon fi ulum al-Qur'on" nomli qomusiy asarini yaratdi. Suyutiy o'z davrigacha bo'lgan Qur'on ilmlariga bag'ishlangan asarlardan istifoda etgan holda, mazkur ilmlar ta'riflarini bir joyga jamlab 80 nomdagi Qur'on ilmlarini zikr etib, ularga ta'rif bergan. Bu kitob o'z sohasidagi barcha kitoblarning gultoji bo'ldi. Ammo,



Suyutiy Qur'on ilmlarini yaxlit, mukammal qamrab olish masalasiga yakun yasadi, chunki undan keyin alohida ajralib turadigan asar bitilgani haqida ma'lumot mavjud emas. Hozirda ushbu asar ko'pchilik arab mamlakatlarida Qur'on ilmlari fanlarida asosiy qo'llanma bo'lib kelmoqda.

Afsuski, Imom Suyutiyan keyin ushbu fan bo'yicha kitob tasnif qilish faoliyati to'xtab qoldi. Chunki, milodiy XV va XIX asrlar davomida "Qur'on ilmlari" bo'yicha salmoqli asarlar yozilgani borasida ma'lumotlar uchramaydi. Shu sababli ham aksar zamonaviy ulamolar bu asrlarni "turg'unlik davri" sifatida tavsiflaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.G'.Abdullayev. Qur'onshunoslik o'quv qo'llanma. – T.: Toshkent islom universiteti, 2011. – 191 b.
2. A.G'.Abdullayev. Qur'onshunoslikka oid ilmlar. – T.: Movarounnahr, 2016. – 159 b.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur'on ilmlari. – T.: Hilol-Nashr, 2021. – 504 b.
4. Ahmadxon qori Rashidov. Qur'on ilmlari (savol-javoblar). – T.: Munir, 2024. – 288 b.